

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr,
96 sahifa, oktyabr, 2025-yil.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
PECULIARITIES OF THE IRRIGATION WATER DELIVERY PAYMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	41
Muminov Sherzod Kholmiraevich	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI	55
Vohobov Hikmatillo Ma‘mirjon o‘g‘li	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA’LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	



XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Xuramov Zafar Rajabaliyevich

O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi

Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlarlararo soliq inspeksiyasi

O'ta yirik soliq to'lovchilar Soliq nazorati bo'limi

Moliyaviy xizmatlar komplekslarining soliq nazorati sho'basi boshlig'i

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni samarali jalb etishning moliyaviy mexanizmlari: xorijiy investitsiyalarni samarali jalb qilishning usullari, shakllari, boshqarish vositalari va moliyaviy instrumentlari mazmun-mohiyati ochib berilgan, izlanishlar natijasida xorijiy investitsiyalarni jalb etishning moliyaviy mexanizmi bo'yicha muallif xulosasi shakllantirilgan, xulosa va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiya, obligatsiya, kredit, depozit, soliq siyosati, pul-kredit siyosati, fond bozori, portfel investitsiyalar.

Abstract: The article reveals the financial mechanisms for effectively attracting foreign investment into the economy: methods, forms, management tools and financial instruments for effectively attracting foreign investment. As a result of the research, the author's conclusion on the financial mechanism for attracting foreign investment is formed, conclusions and recommendations are given.

Keywords: foreign investments, bonds, credit, deposit, tax policy, monetary policy, stock market, portfolio investments.

Аннотация: В статье раскрываются финансовые механизмы эффективного привлечения иностранных инвестиций в экономику: методы, формы, инструменты управления и финансовые инструменты эффективного привлечения иностранных инвестиций, в результате проведенного исследования сформирован авторский вывод о финансовом механизме привлечения иностранных инвестиций, даны выводы и рекомендации.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, облигации, кредит, депозит, налоговая политика, денежно-кредитная политика, фондовый рынок, портфельные инвестиции.

KIRISH

Investitsion faoliyat jahon iqtisodiyotining muvaffaqiyatli rivojlanishining asosini belgilaydi, shuningdek, dunyoning turli mamlakatlari iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va diversifikatsiya qilish istiqbollarini aniqlashga yordam beradi. Xorijiy investitsiyalarning ahamiyati kapitalning xalqaro bo'linishiga, shuningdek investorning mamlakatiga qaraganda chet elda tadbirkorlik faoliyatidan foyda olishning yanada foydali usullarini izlashga imkon yaratadi.

So'nggi yillarda investitsiyalarni jalb qilish muammosi hukumatning doimiy diqqat markazida bo'lib kelmoqda, bu juda ko'p qirrali masalaning turli tomonlari mahalliy va xorijiy olimlar va mutaxassislar tomonidan olib borilgan keng ko'lamlı tadqiqotlarda o'z aksini topdi, asosan bunday tadqiqotlar sanoat darajasida o'tkazildi va o'tkazilmoqda. Zamonaviy sharoitda investitsiyalar hajmi texnologik o'sishni ta'minlaydi, ishlab chiqarish sifati va miqdorini yaxshilaydi. Bu nafaqat investitsiyalarni jalb qilish, balki ulardan to'g'ri foydalanish uchun ham muhimdir, buning natijasida iqtisodiy samaradorlik oshadi. Investitsion faollik darajasi va investitsiya faoliyati doirasi tadbirkorlik subyektlarining uzoq muddatli faoliyatiga, ularning rivojlanishi va raqobatbardoshligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Qulay investitsiya muhitini shakllantirish ichki va tashqi investorlarning investitsion imkoniyatlarini oshirishga, ularning strategik va operatsion investitsiya qarorlarini qabul qilishiga sharoit yaratadi.

Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bizning asosiy maqsadimiz – O'zbekistonni xorijiy investorlar uchun ishonchli va uzoq muddatli hamkorga aylantirishdir. Davlatimiz bozor munosabatlarini rivojlantirishni, investorlar huquqlari ishonchli himoya qilinishini, qulay investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishni, halol raqobat uchun yanada keng shart-sharoitlar yaratishni, xususiyl mulk daxlsizligi va sud tizimining mustaqilligi ta'minlanishini o'z zimmasiga olmoqda"¹.

1 Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Учинчи Тошкент халқаро инвестиция форумидаги нутқи. 02.05.2024 йил. <https://president.uz/uz/lists/view/7194>



Ushbu mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, mamlakatda qulay investitsiya muhitini yaratish, xorijiy investitsiyalarni samarali jalb qilishning moliyaviy mexanizmlarini yanada takomillashtirish, bu borada xorij tajribasini o'rganish va natijada tashqi investitsiya manbalarini jalb qilishga olib keladi. Shu bilan birga, mamlakatga iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlari va tarmoqlariga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining oshishida ijobiy samaraga erishiladi, bu esa o'z navbatida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik maqsadlariga erishishga yordam beradi. Mamlakat investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish, xorijiy investitsiyalarni boshqarish vositalari: optimal soliq va pul-kredit siyosatini ishlab chiqish hamda fond bozorining rivojlantirish kabi muammolarni chuqur o'rganishni talab qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Har qanday davlatda moliyaviy mexanizm - moliyaviy siyosatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muhim boshqaruv elementi va iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi sifatida qo'llaniladi. Bu iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlash maqsadida jamiyat tomonidan qo'llaniladigan moliyaviy munosabatlarni tashkil etish usullari to'plamidir.

Ilmiy adabiyotlarda global miqyosda moliyaviy mexanizmning mazmunini ifodalaydigan ikkita konseptual yondashuvni keltirish mumkin. Birinchi yondashuv shundan iboratki, moliyaviy mexanizm deganda korxonalarning o'z moliyaviy faoliyati tushuniladi. Moliyaviy munosabatlarning moddiy aksi pul oqimidir. Ushbu oqimlarni tashkil qilish, ularni amalga oshirish tartibi moliyaviy "texnika"ni tavsiflovchi muayyan qoidalarga, muayyan yo'nalishlarga muvofiq amalga oshiriladi. Moliyaviy mexanizmni aniqlashga bunday yondashuv korxonalar moliyaviy faoliyatining ichki tashkil etilishini aks ettiradi.

"Moliyaviy mexanizm" tushunchasini ko'rib chiqishga ikkinchi yondashuv shundan iboratki, u iqtisodiyotning holati va rivojlanishiga ta'sir qilish usullari va shakllari, yo'llari va vositalari majmuasi sifatida tushuniladi. Ushbu yondashuv moliya munosabatlarining tashqi ta'sirini aks ettiradi, moliyani xo'jalik yurituvchi subyektlarning boshqaruv apparati iqtisodiy holatiga ta'sirining hal qiluvchi omili sifatida tavsiflaydi.

Hozirgi vaqtda quyidagi masalalar munozarali bo'lib qolmoqda: moliyaviy mexanizmning mazmuni va funksiyalarini iqtisodiyot nuqtayi nazaridan ochib berish; moliyaviy mexanizmning ichki tuzilishi; moliyaviy mexanizmning xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslarni boshqarish tizimiga nisbatan joylashishi; moliyaviy mexanizmni korxonaning moliyaviy boshqaruvi va korxonaning moliyaviy resurslarini boshqarish tizimida ularning funksiyalarini farqlash bilan bog'liq holda joylashtirish; alohida moliyaviy mexanizmlarning mavjudligi (davlat, mintaq va xo'jalik yurituvchi subyektlar darajasida). Shundan kelib chiqib, quyidagi jadvalda turli iqtisodchi olimlarning moliyaviy mexanizm tushunchasiga bergan ta'riflarini ko'rib chiqamiz (1-jadval).

1-jadval. Moliyaviy mexanizm mohiyatiga berilgan ta'riflar

T/r	Muallif va manba	Moliyaviy mexanizmga berilgan ta'rif
1.	Романовский М.В., Белоглазова Г.И. Финансы и кредит: учебник. - М.: Высшее образование, 2006. - С. 575.	Moliyaviy mexanizm - bu moliyaviy munosabatlarni tashkil etish turlari, shakllari, moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanishning o'ziga xos usullari va ularni miqdoriy aniqlash usullari majmuasidir.
2.	Ковалев В.В. Финансовый анализ / В.В. Ковалев. - М.: Финансы и статистика, 2000. 336 с.	Moliyaviy mexanizm - moliyaviy resurslarni tashkil etish, rejalashtirish va ulardan foydalanish tizimidir.
3.	Финансы: учебник Пол ред. Г.Б. Поляка. — 3-е изд., — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008. 703 с.	Moliyaviy mexanizm - bu davlat tomonidan o'rnatilgan moliyaviy munosabatlarni tashkil etish shakllari, turlari va usullari tizimi
4.	Иваницкий В.П. Механизм инвестирования сбережений населения: [монография] / В.П. Иваницкий, Е.И. Мельникова. - Челябинск: ЮУрГУ, 2002. 254 с.	Moliyaviy mexanizm - tadbirkorlik subyektlari tomonidan o'z funksiyalarini ta'minlash uchun qonuniy pul mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish shakllari va usullari majmuasidir.
5.	Kees van Dijk, Herman Savenije, Volume 21 of Forest policy and institutions working paper, University of Minnesota, FAO 2009.	Moliyalashtirish mexanizmi moliya resurslarini yetkazib beruvchi va benefitsiar o'rtasida o'tkazilishini ta'minlovchi institutsional mexanizm sifatida belgilanadi.
6.	http://www.businessdictionary.com/definition/financialmechanism.html	Moliyaviy mexanizm moliyalashtirish ta'minlanadigan usul yoki manba sifatida qaraladi, masalan, bank kreditlari, obligatsiyalar yoki aksiyalar chiqarish, zaxiralar yoki jamg'armalar va sotishdan tushgan daromad


Yuqoridagi olimlarning fikrlaridan va olib borilgan izlanishlar natijasida muallif xulosasi shuki, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning moliyaviy mexanizmlari bu xorijiy investitsiyalarni samarali jalb qilishning usullari, shakllari, boshqarish vositalari va moliyaviy instrumentlari majmuidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur mavzuni yoritishda umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda ma'lumotlarni tizimlash bo'yicha maxsus yondashuvlar, ya'ni taqqoslash, nazariy va amaliy materiallarni jamlash hamda tizimli tahlil, abstrakt-mantiqiy fikrlash, umumlashtirish, kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy mexanizm moliyaviy munosabatlarni tashkil etish shakllari, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida davlat tomonidan foydalaniladigan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan foydalanish usullari majmui sifatida ko'rib chiqilishi mumkin (1-rasm). Moliyaviy mexanizmni ko'rib chiqishda uning funksional aloqalarini aniqlash kerak: xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, uni qonunchilik, soliq ta'tillari va investitsiyaga oid soliq kreditlari orqali rag'batlantirish.



1-rasm. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning moliyaviy mexanizmi

Moliyaviy mexanizmning har bir bo'g'ini bir butunning ajralmas qismidir. Moliyaviy mexanizm tarkibiga mobil elementlar bloki kiradi: soliq stavkalari, soliq imtiyozlari, amortizatsiya stavkalari va qayta moliyalash chegirma stavkasi. Ushbu elementlar iqtisodiy munosabatlar subyektlarining manfaatlarini hisobga olgan holda tuzatilishi kerak. Moliyaviy mexanizm elementlarining kombinatsiyasi: moliyaviy munosabatlarni tashkil etish shakllari, turlari va usullari har bir element uchun miqdoriy parametrlarni belgilash orqali harakatga keltiriladigan moliyaviy mexanizmning "umumiy tuzilishini" tashkil etadi. Moliyaviy mexanizmni shakllantirish orqali davlat o'zining maqsad va vazifalarini to'liq amalga oshirishning kaliti bo'lgan moliyaviy va investitsiya siyosati talablariga to'liq muvofiqligini ta'minlashga intiladi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning shakllariga: to'g'ridan to'g'ri (real) xorijiy investitsiyalar, portfel (moliyaviy) investitsiyalar va boshqa investitsiyalarni (o'rta va uzoq muddatli halqaro kreditlar va ssuda qarzlari) misol keltirish mumkin.

Ilmiy doiralarda moliyaviy vositalarni moliyaviy mexanizmning elementlari sifatida tan olish tendensiyasi keng tarqalganiga qaramay, ushbu konsepsiyani talqin qilishda ma'lum bir evolyutsion yo'l olingan bo'lsa-da, moliyaviy vositalarning mohiyatiga yagona qarash hali ishlab chiqilmagan. Shunday qilib, dastlab ancha soddalashtirilgan ta'rif taqsimlandi, unga ko'ra moliyaviy vositalarning uchta asosiy toifasi ajratildi: naqd pullar, kredit vositalari (obligatsiyalar, kreditlar, depozitlar) va ustav kapitalida ishtirok etish usullari (aksiyalar, paylar).

Jahon amaliyotida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning turli usullari mavjud bo'lib, eng ommabop usullari sifatida: mol-mulk yuz foiz xorijiy investorlarga tegishli bo'lgan xorijiy korxonalarni tashkil etish; moliyaviy aktivlarni sotish va sotib olishni tashkil etish; maxsus iqtisodiy hududlar tashkil etish; konsorsium, konsessiya tashkil etish; ulush qo'shib qatnashish orqali qo'shma korxonalarni tashkil etish, shuningdek, yirik xorijiy kompaniya va firmalarning sho'ba korxonalari va filiallarini tashkil etish, tenderlar e'lon qilish va h.k.

Xorijiy investitsiyalarni samarali jalb qilishda moliyaviy mexanizmlarning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan boshqarish (ta'sir o'tkazish) vositalari ham muhim ahamiyat kasb etib, ularga soliq va pul-kredit siyosati hamda fond bozorining rivojlanganlik darajasini kiritish mumkin.




Soliq tizimining milliy iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlariga ta'sirini baholash murakkab masala. Bundan tashqari, fiskal tizimning bir nechta asosiy yo'nalishlari mavjudligini yodda tutish kerak. Masalan, vaqtinchalik ta'sir etish tizimi, maxsus soliq rejimlari, soliq stavkalarini maqbullashtirish va soliq imtiyozlari tizimi.

To'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini jalb qilgan holda tashkil etilgan va qonun hujjatlari bilan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarishga (xizmatlar ko'rsatishga) ixtisoslashgan korxonalarga O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan tartibda alohida soliqlar yuzasidan imtiyozlar qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nazarda tutiladi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 67-bob, 471-moddasida to'g'ridan to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslarga soliq solish shartlari keltirilgan.

O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash Prezident qarorlari asosida ham amalga oshiriladi. Umuman olganda, O'zbekistonda soliq sohasida bir qator islohotlardan so'ng tadbirkorlik subyektlariga soliq yuki nisbatan yengillashdi. Masalan, korporativ va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i yagona belgilangan stavka bo'yicha undiriladi (yuridik shaxslar uchun 15% va jismoniy shaxslar uchun 12%); dividendlar bo'yicha daromad solig'i stavkasi 5%; qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi (QQS) 12%, mulk solig'i esa 1,5%. O'zbekiston hukumati har yili ayrim soliqlar, yig'imlar va bojlarni undirish stavkalariga tuzatishlar kiritib boradi.

Hukumatning iqtisodiyotdagi investitsiya jarayonlarining intensivligiga ta'sirini jamiyatda olib borilayotgan pul-kredit siyosatini amalga oshirish usuli bo'lgan pulni tartibga solmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi. Pul-kredit siyosati - bu davlat tomonidan maxsus moliya-kredit institutlari vositachiligi orqali amalga oshiriladigan va oldindan belgilangan ijobiy iqtisodiy va ijtimoiy natijaga erishishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui. Bu shuni anglatadiki, pulni tartibga solish siyosatining amaliy tarkibiy qismi sifatida bir xil maqsadlarga erishishga qaratilgan bo'lishi kerak. Iqtisodiyotni pul bilan tartibga solish milliy iqtisodiyotning real sektoridagi investitsiya jarayonlarini faollashtirishga hissa qo'shishi, O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlarining milliy valyutada tejash siyosatini rag'batlantirishi va mamlakatning bank-moliya tizimini kuchaytirishi kerakligini anglatadi (2-rasm).



2-rasm. Markaziy bankning emission va tartibga soluvchi pul oqimlari.

Prezidentning 18 noyabr 2019-yildagi PF-5877-sonli "Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni hamda 11 noyabr 2019-yildagi O'RQ-582 sonli yangi tahrirda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi qonunga muvofiq, narxlar barqarorligi milliy pul-kredit siyosatining asosiy maqsadi sifatida belgilandi va Markaziy bank inflyatsion targetlash rejimiga o'tishni boshladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentyabrdagi PF-5571 son «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni, avvalo, amaldagi valyutani tartibga solish tizimini tubdan isloh qilish, valyuta siyosatini liberallashtirish, barcha tadbirkorlik subyektlariga tashqi savdo faoliyatini amalga oshirishda teng sharoitlar yaratishga qaratilgan. Ushbu farmon ichki va tashqi investorlar uchun valyuta konvertatsiyasi masalasini uzil-kesil hal etdi.

Xorijiy investitsiyalarni boshqarish vositalari sifatida qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatiga to'xtalib o'tsak. Qimmatli qog'ozlar bozori har qanday zamonaviy sivilizatsiyalashgan iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Shuning uchun uni tartibga solish, jamiyatdagi investitsiya resurslarining umumiy massasiga



ta'siri tufayli butun milliy iqtisodiy kompleks uchun katta ahamiyatga ega. Fikrimizga ko'ra, qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish tizimi quyidagi vazifalarni hal qilishga yordam berishi kerak: iqtisodiyotning korporativ sektoriga xususiy investitsiyalarni jalb qilishning samarali mexanizmini shakllantirish (birinchi navbatda, ushbu maqsadlar uchun davlat mablag'larini jalb qilish); qimmatli qog'ozlar bozori vositalaridan foydalangan holda davlat byudjeti taqchilligini inflyatsiyasiz qoplash mexanizmini shakllantirish; qimmatli qog'ozlar bozoriidan foydalangan holda davlat mablag'larini investitsiya dasturlariga jalb qilishning samarali mexanizmini yaratish; global moliyaviy oqimlarning ichki ishtirokchilarining huquqlarini ta'minlash bilan birga, ichki qimmatli qog'ozlar bozorining jahon bozorlariga integratsiyalashuviga ko'maklashish; ichki iqtisodiyotda «samarali mulkdor»ni paydo bo'lishi uchun sharoit yaratish va boshqalar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning moliyaviy mexanizmi bevosita davlatning moliyaviy va investitsiya siyosatiga chambarchas bog'liqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Miliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni samarali jalb etishning moliyaviy mexanizmlari to'g'risida yuqorida qayd qilingan tadqiqot natijalaridan kelib, quyidagi xulosa va tavsiyalarni berish mumkin: birinchidan, ko'pchilik rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, kapital oqimlarini tartibga solishning "milliy rejimi" dan foydalanish; ikkinchidan, rivojlanayotgan davlatlarga xos ravishda xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirishning fiskal siyosatini rivojlantirish maqsadga muvofiq; uchinchidan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha qonunchilik bazasini halqaro savdo tashkiloti talablari doirasida qo'shimcha takomillashtirish; to'rtinchidan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etish va samarali faoliyat yuritishi yuzasidan ko'proq Xitoy davlati tajribalaridan foydalanish; beshinchidan, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda miqdor ko'rsatkichlaridan sifat ko'rsatkichlariga o'tish; oltinchidan, xorijiy investorlar uchun mamlakat va uning hududlari investitsion salohiyati to'g'risida haqqoniy va shaffof ma'lumotlar bazasining elektron platformasini yaratish va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqi. 02.05.2024-yil. <https://president.uz/uz/lists/view/7194>
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda "Soliq kodeksi". <https://lex.uz/docs/4674902>.
3. Романовский М.В., Белоглазова Г.И. Финансы и кредит: учебник. - М.: Высшее образование, 2006. - С. 575.
4. Ковалев В.В. Финансовый анализ / В.В. Ковалев. — М.: Финансы и статистика, 2000. 336 с.
5. Финансы: учебник Пол ред. Г.Б. Поляка. — 3-е изд., — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008. 703 с.
6. Иваницкий В.П. Механизм инвестирования сбережений населения: [монография] / В.П. Иваницкий, Е.И. Мельникова. — Челябинск: ЮУрГУ, 2002. 254 с.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100